



RAUF PARFI SHE'RIYATIDA INSON VA TABIAT TASVIRI

Xayrullayeva Mashhura Ma'murjon qizi

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti

4-kurs talabasi

<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.7961886>

ARTICLE INFO

Received: 15th May 2023

Accepted: 22th May 2023

Online: 23th May 2023

KEY WORDS

Rauf Parfi, She'riyat, shoir, inson, tabiat.

ABSTRACT

Ushbu maqolada inson haqida, tabiat haqida va shoir Rauf Parfi she'riyatidagi insonning va tabiatning tasvirlanishi haqida so'z yuritiladi.

Inson barcha soha va yo'nalishlarning asosini tashkil etadi. Insonning his tuyg'ulari hamisha birinchi o'rindadir. She'riyatda bu holatga alohida e'tibor beriladi. Bularning barchasini tasvirlash uchun timsol, obrazlar yordamga keladi. Rauf Parfi ijodida tabiat va inson ruhiyati tasviri yuqori o'rinda turadi. Rauf Parfi kimningdir ichki dunyosini va go'zalligini kuylab, unda yomg'ir shivirini tasvirlaydi. Sochilgan yomg'ir tomchilari o'tkinchi bo'lib yer bag'riga singiydi. Lekin bu yomg'ir emas har bir tomchisida olam jahon xotirani mujassam etgan insonning umri hisoblanadi.

Yomg'ir yog'ib chiqdi tun bo'yi,
Tong oqardi ,tinmadi yomg'ir.
Buzilgandek osmon uyi-
Yerga qarab yig'laydi og'ir.

Kitobxon bu she'rda yomg'ir tomchilarida kechagi kunlarini ko'radi. Bu damlar qanchadan qancha shod va bearmon kunlarni olib ketmadi. Oqshomning sokin va dilga yoqar damlarida daraxt barglarini shitirlatib o'ynayotgan yomg'ir nafasi barchaga yoqadi. Shoir yomg'ir orqali inson ruhiyatidagi sokinlikni ochib bergan.

Mayus edi seni ko'zlaring g'oyat,
Go'yo yo'lsiz o'rmon barglarin to'kib,
Qora yolqinlikda shivirlar oyat,
Ko'zlaringni tinglayapman entikib.

Diloromning ko'zlari ma'yus. Bu holat lirik qahramonni yolg'iz o'rmonga tushib qolgandek qilib qo'ydi. E'tibor bersak, yolg'iz o'rmon qahramon ruhiyatiga mos ravishda tasvirlangan. U endi lablar bilan, ko'zlar bilan suhbatga kirishadi. Qalban yaqin insonlar bir birlarini bir qarashda so'zsiz tushunib oladi.

Bu dunyo barchaga turlicha ko'rinadi. Lirik qahramonning ma'yusligiga nima sabab bo'ldi? Shoir keyingi misralarda buning sababini ochib bergan.

Zanjirmi Sharq qizining qo'llarida,
Bir kuch topilmas, kishan sinmasmi,



Sharq qizi, Sharq qizi, endi kulmasmi?

Kishanband qo'llar, hurlikdan judo bo'lgan ko'zlar hech qachon kulolmaydi. Shoir ko'zlaridagi yolqinlikni birinchi pog'onaga ko'taradi, qahramonning bor xarakteri, dunyoqarashini ko'rsatib beradi. Tutqunlikda qolgan qiz Turkistonning kulmasligiga sabab bo'ladi, erkinlikning porloq nurlari esa sovuq mozorlardan olislarga olib ketadi. Erksizlik azoblari mangu o'lishiga umid qiladi. U faqat ko'zlariga termulib qalb so'zlarini tinglaydi.

Barglarda raqs etar shabboda,
O'ynar sabo shaklinda kecha,
Tun bulutga ko'tarib boda
Afsonalar aytar tonggacha .

Tunda sodir bo'layotgan voqealar obrazli tasvirda tasvirlangan. Inson ana shu holat va ruhiyat ichiga bir zungina bo'lsa ham sho'ng'ib ketadi. Bu satrlarda tun o'zining ko'rganlarini boda tutib bulut bilan o'rtoqlashganini ko'ramiz.

Lirik qahramon uchun kechagi kun ko'zlaridagi qorong'u zulmatga o'xshaydi. Ammo bu zulmat ichida ham nur porlaydi. Bu shunchaki nur emas, qora nurdir. Qahramon uchun bu kecha yomg'ir ostida ko'z ilg'amas xayoldek namoyon bo'ladi. Bu xayollar bir kechada yomg'ir suvlariga yuvilib o'z ruxsori ko'rsatadi. Keyin esa, u bilmagan yangidan g'oyalar, o'ylar paydo bo'ladi. Ona tabiat jilvasi bo'lmish yomg'ir , bulutga to'la osmon, qorong'u kecha obrazlari vositasida inson ruhiyatiga xos chizgilar tasvirlab beriladi.

Rauf Parfi faqat tabiat hodisalaridagi tuyg'ularni ifodalab qolmaydi, ko'zlar bilan ham suhbat quradi. Biz bu holatni "Diloromning ko'zlari" she'rida ko'rishimiz mumkin. Ko'zlarni qalb oynasi ,chunki botindagi so'zlarimiz ko'zlarimizdan namoyon bo'ladi. Rauf Parfi ijodida ko'zlar hayqira oladi.

Ko'zlaring qarida siniq bir nola,
Balkim qafas ichra uyg'ongan navo,
Balkim toshloqlarda qon yutgan lola,
Yo'q, havosi so'rib olingan havo.

Ko'zlardan taralayotgan nola unsiz va siniq. Qafas ichra yaralgan navo ko'ngilga orom emas, balki g'amginlik baxshida etadi. Bu esa toshloqlarda qon yutib ungan lolaga qiyoslanayapti. Tutqunlikda o'sgan nola uchun havo yetmaydi. Har qanday holatda ham, qayg'u va alam uni o'z qariga tortib ketmadi. Chunki u olislarda adashgan kema kabi o'z baxtini bag'riga chorlaydi. Lirik qahramon unga "Ko'zim"deya murojaat qiladi. Borliqni oqqa burkangan holda, butun dunyoni shodlikdan porlagan ko'zlarida ko'rishni istaydi.

Ko'zlaringning qa'riga yukinar, izlar
Yorug' sohillarni asraydi jon.
Mangulik osmoni -bu teran ko'zlar.

Shoir o'tkan kunlarni shu ko'zlar qa'riga muhrlaydi. Asrga tengdosh bu jon endi yorug' sohillarda, mangulik osmoniga parvoz qiladi,chunki butun olamni teran nigoh bilan qarshilamoq uchun oshiqadi.

Shoir she'rlarida sokinlik, teranlik kitobxonni o'ziga jalb qiladi. Mana shunday tuyg'ular shoir she'rlarida ko'plab aks ettiriladi. Shoir "Yozilmagan she'r erur dilim"-deydi. O'z joni uchun orom izlaydi, o'tkinchi hayotda mehmon ekanligini angelaydi. Tabiat go'zalliklari, inson ruhiyati tasviri Rauf Parfi she'rlarida yetakchi o'rinni egallaydi. Bugun "so'ngan chiroq"dan



taralayotgan nur qalblarimizga she'rlaridan anglashilayotgan so'zlar orqali kirib kelmoqda. U so'zga qarata shunday so'zlarni aytadi:

Qiynamagil meni, onajon.
Sen -abadiy, men-lahza biroq
Itoat et menga shul zamon
Yo aylagin telbani tuproq.

Rauf Parfi bizning xotiramizda mana shu so'zga, she'riyatga bo'lgan cheksiz muhabbati va ayricha ijodi bilan muhrlanib qoldi desak bo'ladi. She'rdagi takrorlanmas misralar qalbimizga qadar singib ketdi.

Shoirdagi ijtimoiy dard she'rlari tag matni orqali ifodalangan.

Achchiq shamollarga sotdim o'zimni.
Shamollar o'ynasin, tanamni teshib.

Shoir shamollar tanasini teshib aytar so'zlarini o'qib olishini istaydi. Hech bir tuzum haq yo'lini to'sa olmaydi, haqiqat qandaydir yo'llar bilan yuzaga chiqadi. Rauf Parfi aytar so'zlarini imo-ishora, timsol, obrazlar orqali bayon etadi. O'ziga xos ifodaviylik haqiqatni ochib berishga zamin yaratadi. Shoirdagi shunday insoniy dard she'rlari orqali ifoda etiladi. Ifodaviylik haqiqatni ochib berishga zamin yaratadi.

"Rauf Parfi she'riyatida Turkiston qayg'usi, turk birligi g'oyasi ustuvor yo'nalish kasb etadi". Shoirni qiynagan dard ham mana shu bo'ladi. U erk va birlik tarafdori. Shoir bu birlik sari ma'naviyat deb atalmish yo'ldan odimlaydi. Shoirdagi ma'naviyat bu- she'riyatdir. Inson ruhiy olamini keng tasvirlab berish, shoir ijodidagi yetakchi mavzulardan biri hisoblanadi. Rauf Parfining aksariyat she'rlarida turli xarakterdagi fikr va hissiyotlar silsilasi yaxlit bir obrazga mujassamlashadi. Shoir uchun so'z – ham so'z, ham she'r. She'r so'zning, hukmning bir shakli hisoblanadi. Rauf Parfi she'rlarida so'z yuksak darajaga ko'tarilgan. Shuning uchun so'z haqida fikr yuritib, "So'z mening ko'ksimga sanchilar, hayhot!..", "Sochilgan soch kabi so'zimni aytdim", "Qalamdan o'ch olding, So'zini o'ydin", "Bir so'z tarbiyaviy roli, ahamiyati alohida o'rin tutadi. Bu o'rin uning uchun e'tiqod darajasiga ko'tarilgan. Shoir so'zni shunday mahorat bilan tasvirlaydi, undagi mayda detal va o'xshatishlar kishini hayratga soladi.

Bir so'z bor
Beg'ubor tong kabi go'zal,
Tong chog'i ochilgan g'uncha kabi,
G'unchada shabnam kabi musaffo.

"Shoirning eng katta saltanati -So'z. Undan mahrumlik-yo'qlik. Bu so'z shunday qudrat, u o'z yaratuvchisini o'ziga bo'ysundiradi. So'zga qaysarlik qilib bo'lmaydi, uni yengib ham bo'lmaydi".

Shoirning fikricha, u shunday go'zal yaratiqki, erta tong ochilgan g'uncha kabi nafis. Unda kirlik, chirkinlik yo'q. Shoir so'zga bergan qiyosidan ko'ngli to'lmay, keyingi misrada unga yanada noziklik baxshida etadi. So'zni g'uncha yuzida turgan shabnam misol musaffo deb hisoblaydi. U butun umrimiz mana shu so'zlar orasida o'tishini anglab, ularni "peshonada to'plangan ajin"larga ham o'xshatadi. Shoir shuning uchun ham "Yashamakni o'rgatar so'zlar" deydi. Ana shu so'z Rauf Parfini umrining oxirigacha yondirib kuylatdi. Bu-haq so'z edi



Faqatgina o'z erkini ko'ngliga topshirgan kishilarnigina so'z boshqarishi mumkin. Shoirdagi badiiy-estetik mahoratni his qilish uchun she'riyatiga nazar solishning o'zi kifoyadir. Shoir ijodida deyarli jo'n ifodaga duch kelmaymiz. Balki, bu ham badiiy-estetik mahorati tufayli yuzaga kelgan hodisadir. "Sabr daraxti" turkumiga kiruvchi "Sumbula" she'ri mana shunday ifodaviylik xususiyatiga egadir.

Qo'y, bo'ldi. Gapirma. Kechirma meni.

Ko'zingdagi toshni g'ichirlatma, bas.

Quyilmoqda kunduzning achchiq tuni,

Ichib tashlamasam men uni bo'lmas.

To'xta. Bas qil. Gapirma. Bo'ldi.

O'zim gunohkorman. Mendan-bu ko'rlik.

Zangor yaproqlarning bag'rida sho'rlik.

Kecha shovullagan shamollar o'ldi.

Dastlab she'rdagi shakl kishi e'tiborini tortadi, har ikki bandning birinchi misrasidagi gaplar buyruq ohangida yangraydi. "Ko'zingdagi toshni g'ichirlatma, bas" misrasi kishi tafakkurini sinovdan o'tkazadi.

Ko'zda toshning borligi qanchalik haqiqatga yaqin? Biz bilamizki, tosh ma'lum bir moddaning jipslashuvidan vujudga kelgan qattiq predmet hisoblanadi. Inson ko'zidagi toshning yaralishiga nima sabab bo'ldi ekan?

Qalbimizdagi so'zlar ko'zlarda aks etgani kabi, voqelanmagan so'zlar ham ko'zlarda qolib ketadi. Bu esa yig'ilib-yig'ilib qalb jarohatidan tuzilgan qattiq toshning yaralishiga sabab bo'ladi. Rauf parfi ijodida bunday munozarali misralar bisyorgina. Bu shoirdagi ijtimoiy dardning nechog'lik kuchli ekanligidan darak beradi. She'rda e'tibortalab misralar bor: "Xomush tortib, junjikib qo'ydi shamol", "Sovuq osmon yuzida izg'ir ko'zim, xotiramning tasbehlari tizildi. Qayg'uliman qonga qorishgan so'zim", "Kecha shovullagan shamol o'ldi", "So'zlar, so'zlar qolur bo'g'zimda qotib", "Ilon sochlaringni shamol o'ynaydir", "G'imirlar kechaning qop -qora tani", "Daryo bo'lib sening ko'zlaring boqar", "Daryoga lim to'lib jasadim oqar". Bunday o'xshatishlar kishi metaforik tafakkurini, shoir badiiy mahurat qirralarini yorqinlashtiradi.

She'r shoir qalbida kuchli bir og'riq bilan vujudga keladi. Uning shakl-shamoyil, mazmuni o'sha davrning naqadar kuchli va chuqurligiga bog'liq bo'ladi. Shuning uchun ham shoir "Rostmi shu?She'r tug'ar emish alamlar",-der. Rauf Parfi uchun bu alam tunganmas va oxiri yo'qdek tuyuladi.

Tugatib bo'lmas hech bu dardni ichib,

Yorilgan yaradan chechaklar o'sdi.

Yuragingning yirtiq ko'ylagin yechib,

Bag'ringga bosarsan-bormisan, do'stim?

Shoirdagi tunganmas dardlar nima ekan?Shunchalik chuqur ekanmi yaraga aylanib yorilish darajasiga kelgan bo'lsa? Yorilgan yaradan chechaklar o'sishini nima bilan izohlash mumkin?

Lirik qahramon qalbida yashab kelayotgan bu dard-u alam yuragini tilka pora qilgan. U "Yuragingning yirtiq ko'ylagin yechib", anchadan beri intiqib kutayotgan do'stini bag'riga



bosishga tayyor edi. Lirik qahramon orzu qilib kutayotgan diydor nimada mujassam ekanligini keyingi misrada oydinlashadi.

Har kim o'z qalbiga o'zidir xoqon,
Baribir, men seni sevib sizlarman.
Ehtimol nohaqman, ehtimol haqman-
Muqaddas Turkiston so'zin izlarman.

Barcha savol, dard-alamlar uning uchun muqaddas bo'lgan Turkiston atrofida o'z yechimini topmoqda. Bunday misralar uni yonib yashashga, olg'a qadam tashlashga undaydi. "Rauf Parfi she'riyatida Turkiston qayg'usi ustuvor yo'nalish kasb etib kelmoqda". Aynan mana shu yo'nalish uning uchun eng katta dardga aylangan hisoblanadi.

Ijodkor "So'z mening ko'ksimga sanchilar, hayhot!..."-deydi. So'zdan qolgan jarohat yuragida uyg'ongan kuchli og'riqqa sababdir. Endi lirik qahramon bunday qiynoqlardan qutulish uchun najot izlaydi.

Yurak deb atalgan og'riq bu-najot,
Ko'krak qafasimiz-najot qal'asi.

Rauf Parfi mana shunday majoziy timsollar asosida o'z tuyg'ularini bayon etadi. Bu misralar shoirni Haq, Haqiqat sari yetaklaydi. Undagi ilohiy tuyg'u va istak shu so'z zamirida yig'iladi. Bunday tuyg'ular qandaydir yo'l bilan bo'lsa-da, kitobxon ongiga singadi. Rauf Parfi estetik qarashlarning ildizlarini yolg'iz tog'-u toshdan izlamaslik kerak. Shoir she'rlari Mag'rib-u mashriq, kunchiqar kunbotar badiiyatning mumtoz namunalaridan suv ichadi. Shuning uchun ham Rauf Parfini jahon estetikasidagi timsollar realizmiga, tuyg'ular realizmiga moyil san'atkorlik ko'proq qiziqtiradi. Bunday badiiy va estetik qarashlar ijodkor olamine qamrab olgan. Undagi asl go'zal, insoniy tuyg'ularni yuzaga olib chiqqan. Mana shu tuyg'ular uning hayot mazmuniga aylanib qolgan. Shoir Rauf Parfidagi zamin va samoga bo'lgan ilohiy muhabbat ham ana shu tuyg'ular orqali o'quvchi qalbiga singiydi. Shoirdagi faylasufona qarash va idrok o'tkir nigoh bilan kishi tuyg'ularini taftish qiladi. Shoir bir she'r ustida kunlab, balki, oylab bosh qotirgan bo'lsa, ajab emas. Bu shoir o'z ustida tinmasdan mehnat qilgani, o'ziga nisbatan talabchan bo'lganligidan dalolat beradi. Rauf Parfidagi eng katta sehr e'tiqodi mustahkamligidadir. Bu e'tiqod she'r orqali Turon-Turkistonga borib taqaladi. Bu ikki tushuncha orqali shoirdagi badiiy-estetik qarashlar yuzaga chiqadi.

References:

1. Parfi R. Qaytish.-T.: G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1981. – B.122.
2. Rahimjonov N. Davr va o'zbek lirikasi. -T.:Fan, 1979. -B.56.
3. Parfi R. Tavba. – T.: Yozuvchi, 2000. – B.3.
4. Parfi R. Ko'zlar. – T.: G'.G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti,1975. – B. 38.
5. Shodmonov O. Adabiyot qismatidir. – T.: Sharq, 2014. – B.103.
6. Parfi R. Sakina. Saylanma. – T.: Muharrir, 2013. – B. 31.
7. Oltinbekov O. Rauf Parfining adabiy-estetik qarashlari. – T.: Muharrir, 2013. – B. 209.
8. Parfi R. Sabr daraxti. – T.: G'.G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1986. – B. 191.